

IJTIMOIIY SIYOSAT TIZIMINING ZAMONAVIY TALQINLARI VA UNING INSTITUTSIONAL XUSUSIYATLARI

Xazratkulov Sherzod Abror o'g'li

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi
siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy siyosat tizimining zamonaviy talqinlari va uning institutsional asoslari tahlil qilinadi. Ijtimoiy siyosatning nazariy modellaridan boshlab, uning zamonaviy yondashuvlari, reaktiv, proaktiv va transformatsion bosqichlari, shuningdek, davlat hamda fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar yoritiladi. Raqamli transformatsiya, inklyuzivlik va manzillilik tamoyillarining ijtimoiy siyosatga integratsiyalashuvi, ijtimoiy xizmatlar samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi amaliy institutlar faoliyati asosida ko'rib chiqiladi. Maqolada ijtimoiy siyosatni mahalliyashtirish zarurati hamda hududiy farqlarni hisobga olgan holda resurslar boshqaruvining yangi mexanizmlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy siyosat, zamonaviy yondashuvlar, inklyuzivlik, institutsional tizim, mahalliyashtirish, raqamli transformatsiya.

MODERN INTERPRETATIONS OF THE SOCIAL POLICY SYSTEM AND ITS INSTITUTIONAL FEATURES

Khazratkulov Sherzod Abror ugli

*Teacher of the Department of Social Sciences of the Uzbek State University of
World Languages, Doctor of Philosophy in Political Science (PhD)*

Abstract. This article analyzes modern interpretations of the social policy system and its institutional foundations. Starting from theoretical models of social policy, its modern approaches, reactive, proactive and transformational stages, as well as the interaction between state and civil society institutions are highlighted. The integration of the principles of digital transformation, inclusion and targeting into social policy is considered based on the activities of practical institutions that serve to increase the effectiveness of social services. The article substantiates the need for localization of social policy and new mechanisms for resource management, taking into account territorial differences.

Keywords: social policy, modern approaches, inclusion, institutional system, localization, digital transformation.

KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida ijtimoiy hayotning barqarorligi va taraqqiyoti bevosita davlatning ijtimoiy siyosatini qanday yo‘naltirishi bilan uzviy bog‘liqdir. Ijtimoiy siyosat nafaqat fuqarolarning turmush darajasini oshirish, balki ijtimoiy tenglikni ta‘minlash, ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish, jamiyatda adolat prinsiplarini mustahkamlash kabi strategik maqsadlarga xizmat qiladi. Shu bois, ijtimoiy siyosat tizimi zamon o‘tishi bilan murakkablashib, nafaqat iqtisodiy va huquqiy, balki madaniy, axloqiy va institutsional jihatdan ham chuqur o‘zgarmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Titmussning fikricha, ijtimoiy siyosat – bu davlatning aholiga nisbatan insonparvarlik siyosati bo‘lib, u tengsizlikni kamaytirish, ijtimoiy adolatni qaror toptirish va ehtiyojmand qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash orqali jamiyatning barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi [1]. Uning “Social Policy: An Introduction” asarida bayon etilishicha, ijtimoiy siyosat faqat iqtisodiy vosita emas, balki axloqiy va madaniy mezonlarga tayanuvchi tizimdir. Titmuss davlatning roli pasaytirilgan bozor

mexanizmlariga asoslangan liberallikni tanqid qilgan va sotsial-demokratik modelni afzal deb bilgan.

Esping-Andersenning fikricha, ijtimoiy siyosat tizimlari uch asosiy modelga – liberal, konservativ (korporativ), va sotsial-demokratik rejimlarga ajraladi [2]. U “The Three Worlds of Welfare Capitalism” asarida ijtimoiy institutlarning shakllanishi tarixiy, madaniy va siyosiy an’analar bilan chambarchas bog‘liq ekanligini asoslaydi. Muallifga ko‘ra, sotsial-demokratik tizim eng inklyuziv va tenglikni ta’minlovchi model hisoblanadi. Shuningdek, u davlat institutlari va fuqarolik jamiyatining o‘zaro aloqasi, ijtimoiy himoya samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ijtimoiy siyosatning dastlabki nazariy asoslari XIX asr oxirida G‘arbiy Yevropa davlatlarida shakllana boshlagan bo‘lib, u industriyalashuv jarayonida yuzaga kelgan sinfiy tafovutlar, bandlikdagi nomutanosiblik va ijtimoiy nohaqlikni yumshatish ehtiyoji bilan bog‘liq edi. Bugungi kunda esa ijtimoiy siyosat ko‘p qirrali tizimga aylangan bo‘lib, iqtisodiy barqarorlik, aholi bandligi, ijtimoiy tenglik, sog‘liqni saqlash, ta’lim va ijtimoiy adolat kabi ko‘plab yo‘nalishlarni qamrab olgan.

Ijtimoiy siyosat faqat nazariy konsepsiyalar yig‘indisi emas, balki u amaliyotda mavjud institutlar tizimi orqali ro‘yobga chiqariladi. Institut bu yerda ikki ma’noda tushuniladi: birinchisi – rasmiy (hukumat idoralari, qonunchilik organlari, sug‘urta kompaniyalari), ikkinchisi – norasmiy (an’anaviy urf-odatlar, ijtimoiy norma va qadriyatlar) ko‘rinishdagi ijtimoiy tashkilotlar.

O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy siyosatning institutsional asoslari quyidagilar orqali namoyon bo‘ladi:

– Davlat boshqaruv institutlari – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Sog‘liqni saqlash, Bandlik va kambag‘allikni qisqartirish vazirliklari orqali ijtimoiy siyosatning strategik yo‘nalishlari belgilanadi va ijro etiladi.

– Hududiy boshqaruv organlari – viloyat, tuman va shahar hokimliklari aholining ijtimoiy ehtiyojlarini joyida aniqlab, moslashtirilgan dasturlarni amalga oshiradi.

– Fuqarolik jamiyati institutlari – nodavlat notijorat tashkilotlar, jamoatchilik kengashlari, yoshlar va ayollar ittifoqlari ijtimoiy muvozanatni saqlashda vositachi sifatida ishtirok etadi.

– Xalqaro tashkilotlar – BMT, UNICEF, Jahon banki, Yevropa Ittifoqi va boshqa donorlar ko‘magida olib borilayotgan ijtimoiy loyihalar orqali institutlarning institutsional quvvatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy siyosatni muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim jihat – bu tizimlararo koordinatsiya va resurs taqsimotining shaffofligidir. Aks holda, ijtimoiy resurslarning noto‘g‘ri taqsimoti korrupsiyaga, tengsizlikni kuchaytirishga va ijtimoiy ishonchning pasayishiga olib keladi. Shu boisdan ham davlat institutlari o‘rtasidagi vertikal va gorizontaal aloqalar, shuningdek, ijtimoiy siyosatni monitoring qilish va baholash tizimi institutsional kuchaytiruvchilarning asosi hisoblanadi.

Bugungi globallashuv va raqamli inqilob sharoitida ijtimoiy siyosat ham transformatsiyalarga yuz tutmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida aholining ehtiyojini tezkor aniqlash, resurslarni manzilli yetkazish, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish, shaxsiy ma’lumotlar asosida ijtimoiy xizmatlarni avtomatlashtirish imkoniyati paydo bo‘ldi. Ayniqsa, O‘zbekistonda “Yagona ijtimoiy reyestr” tizimining joriy etilishi, ijtimoiy nafaqalarni elektron platformalar orqali tarqatish amaliyoti bu borada muhim institutsional yutuqdir.

NATIJALAR

Ijtimoiy siyosat hech qachon doimiy va qat’iy shaklda mavjud bo‘lmaydi — u doimiy evolyutsiyada bo‘lib, har bir tarixiy davrda turli omillar ta’sirida o‘zgarib boradi. Mazkur transformatsiyalar ko‘pincha siyosiy tizimning o‘zgarishi, iqtisodiy islohotlar, demografik tendensiyalar, ijtimoiy muvozanatning buzilishi yoki xalqaro

sharoitning keskin o'zgarishi bilan bog'liq bo'ladi. Shu boisdan, ijtimoiy siyosatni statik emas, balki dinamik tizim sifatida ko'rib chiqish lozim.

Zamonaviy ijtimoiy siyosat transformatsiyasi uchta asosiy bosqich orqali namoyon bo'ladi:

Reaktiv bosqich – ijtimoiy muammolarga javob tariqasida shakllanadi, ya'ni aholining ehtiyojlari va bosimiga reaksiya sifatida ijtimoiy yordam mexanizmlari joriy etiladi. Bu bosqichda siyosat asosan muammolarni yengillashtirishga qaratiladi.

Proaktiv bosqich – oldindan strategik rejalashtirish asosida ishlaydi. Aholi qatlamlarining ehtiyojlari prognoz qilinadi, ijtimoiy institutlar oldindan profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqadi.

Transformatsion bosqich – ijtimoiy siyosat tubdan yangilanadi, institutlar isloh qilinadi, raqamlashtirish, davlat-xususiy sheriklik, fuqarolik jamiyati ishtiroki kuchayadi. Bu bosqich bugungi kunda O'zbekiston tajribasida yaqqol kuzatilmoqda.

XULOSA VA MUNOZARA

Ijtimoiy siyosat tizimi – bu har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi tayanch mexanizmdir. Uning zamonaviy talqini ko'p qatlamli, dinamik va moslashuvchan bo'lishi bilan ajralib turadi. Ijtimoiy siyosat nafaqat resurslarni qayta taqsimlash vositasi, balki jamiyatdagi ishonch, adolat, ijtimoiy birdamlikni ta'minlash vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur tizimni samarali boshqarish esa, birinchi navbatda, institutsional asoslarning mustahkamligi, ularning funksional uyg'unligi va shaffofligiga bog'liq.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”. www.lex.uz
2. Titmuss, R. M. (2014). Social Policy: An Introduction. London: George Allen & Unwin.

- Ijtimoiy siyosatning klassik nazariy asoslarini belgilab bergan asarlardan biri. Liberal va sotsial-demokratik model tahlil qilinadi.
- 3. Esping-Andersen, G. (2010). The Three Worlds of Welfare Capitalism. Princeton University Press.
- 4. Atkinson, A. B. (2015). Inequality: What Can Be Done? Harvard University Press.
- Ijtimoiy tenglik va davlat siyosatining iqtisodiy-sotsial natijalari bo'yicha zamonaviy tahlil.
- 5. Qodirov, M. (2021). "O'zbekiston ijtimoiy siyosatining institutsional asoslari va islohoti", Ijtimoiy fanlar jurnali, №4, 33–39-betlar.